MUSIQA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA MUSIQIY FANLARNING AHAMIYATI

Raximov Nurillo Narzullaevish
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagogik oliy ta’lim muassasalarida umumta’lim maktablarining bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ‘Musiqa o‘qitish metodikasi’ va ‘Cholg‘u ijrochiligi’ fanlarini o‘qitish jarayonida fanlarning integratsiyasidan foydalanish jarayoni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi-yoshlar, musiqa san’ati, musiqa mashg‘ulotlari, oliy ta’lim, shaxs kamoloti, musiqa o‘qitish metodikasi, ijrochilik ko‘nikmalari.

Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari, jumladan uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida amalga oshirilayotgan tub islohatlar etuk malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda xalqaro andozalar talablariga javob beruvchi pedagog kadrlar tayyorlash vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. Vaholanki, ta’limning asosiy maqsadi – mustaqil va ijodiy fikrlovchi, yuksak ma’naviyat va madaniyatli, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun har tomonlama rivojlangan, kasbiy-metodik tayyorgarlikka ega bo‘lajak musiqa o‘qituvchi-shaxsini tarbiyalash har bir xalq va davlatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini barkamol shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish, ularda ma’naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan musiqiy madaniyatni

[1] Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги. UNDP – Тошкент-2007/2008. – Б. 96.

shakllantirishning dasturiy vazifalarini ro‘yobga chiqaruvchi o‘qituvchidan o‘ziga xos kasbiy-pedagogik va metodik tayyorgarlik, yuksak ijrochilik mahoratini talab etadi.

O‘quvchi-yoshlar qalbida nafosat, go‘zallik, yuksak estetik his-tuyg‘ularni, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish omili bo‘lgan musiqa san’ati, musiqa mashg‘ulotlarining barcha ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ushbu jarayonni davlat ta’lim standartlari darajasida tashkil etish uchun musiqa o‘qituvchisiga etarli darajadagi kasbiy tayyorgarlik zarurdir. Umumiy va kasbiy kompetensiya talablariga javob bera oladigan bunday musiqa o‘qituvchisi pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichda bakalavr kadrlarini tayyorlash bilan amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uni rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish, bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish, o‘quv-tarbiya jarayonini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biridir.

Bola tarbiyasi va unga murabbiylik, ustozlik qilish sohasida xalqimiz ulkan tajribaga ega. Milliy tarbiyamiz tarixida insoniy go‘zallik va komillik g‘oyasini Al-Beruniy, Ibn-Sino, Ahmad YAssaviy, Alisher Navoiy, Bobur, Jaloliddin Rumiy ilgari surgan va minglab shogirdlari qalbiga muhrlab ketgan. Ana shunday jahonga mashhur allomalarimizning boy ma’naviy merosi vorisligini sadoqat bilan davom ettirish, ilm-fan, kadrlar tayyorlash sohalarini yanada takomillashtirishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi va uning kasb mas’uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari tizimida bola shaxsini tarbiyalashda musiqa san’atining maqsadi va vazifalari alohida e’tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning ahamiyati qayd qilinib, “Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo‘lmaganda insonning axvoli ne kechar edi” – deya xitob qilinadi.

Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy-ma’rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma’naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta’sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta’rif beriladi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi - degan g‘oya ilgari suriladi. Alloma mashhur “Tibbiyot qonunlari” kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo‘lib kelgan musiqiy allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab musiqaga bo‘lgan ehtiyoj hosil bo‘ladi, degan mazmundagi fikrni ilgari suradi.

Shaxs kamolotida musiqa ta’limi va tarbiyasini amalga oshirish albatta o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalariga bevosita bog‘liqdir. Musiqa o‘qitish metodikasi fan sifatida tizimga mansub bo‘lib, o‘zining mustaqil o‘rniga ega. Bu fan musiqa o‘qitish metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o‘rganadi. “Musiqa o‘qitish metodikasi” ta’lim muassasalarida musiqa nazariyasi, vokal ijrochiligi, colg‘u ijrochiligi, dirijorlik, nafosat, musiqashunoslik, fiziologiya, ruxshunoslik hamda musiqa tarixi va adabiyoti kabi fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa o‘qitish metodikasi ayniqsa, nafosat va musiqashunoslik fanlari bilan uzviy bog‘liq.

60111300 - “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasida “Cholg‘u ijrochiligi” faning I-semestrda 76 soat berilganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu fanni talabalar bitirgunlaricha dars jarayonida, o‘quv reja asosida shug‘ullanmaydilar. Lekin, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyati jarayonida cholg‘u asbobi bilan uzliksiz shug‘ullanishni taqozo qiladi. Shuning uchun “Musiqa o‘qitish metodikasi. Maktab repertuari” fanini o‘zlashtirishda uning amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlari jarayonida berilgan musiqa asarlarini biror colg‘uda chalib o‘rganish va bir vaqtning o‘zida kuylashni ham amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari I-kursning II-semestridan boshlanadigan “Maktabgacha ta’limda musiqa o‘qitish metodikasi” fanining amaliy mashg‘ulotlari (40 soat) jarayonida ham berilgan musiqa asarlarini rubob, dutor, fortepiano va. b. cholg‘ularda chalish bilan bir qatorda kuylash ham yaxshi natija bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 3-bobining 1-bo‘limida:

- ta’limning uzluksizligiga erishish maqsadida umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim dasturlarining uyg‘unligi va izchilligini ta’minlash;

- fanlarni o‘zlashtirishda talabalar orasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish; - kabi vazifalarni bajarish borasida, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini umumta’lim maktablarining musiqa dasturlari bilan tanishtirish va undagi talablarni bajarish, “Cholg‘u ijrochiligi” fani bo‘yicha talabalarni guruhchalarga bo‘lib, musiqiy tayyorgarlik bilan kelgan talabalarni guruhchalarga sardor qilib tayinlash, sardorlar yordamida tayyorlangan asarlarni yakka va jamoa bo‘lib ijrolarini eshitib baholash, shuning bilan bir qatorda guruhchalar o‘rtasida raqobatlashishni tashkil etish, 2 va 3 bosqich talabalarini (4+2) malakaviy amaliyotlarini tashkil qilish bilan ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashdek amaliy ishlar bajarilmoqda.

Bugungi kun talabiga ko‘ra II-III bosqich talabalari 4+2 uzliksiz malakaviy amaliyotga haftaning 2 kunida umumta’lim maktablarida faoliyat olib bormoqdalar. Oliy talim auditoriyalarida olgan nazariy va amaliy bilimlarini malakaviy amaliyotda qo‘llash orqali musiqa darslari jarayonini kuzatmoqdalar (II-bosqich) va amaliy darslarni tashkil qilmoqdalar hamda sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil qilishda sinf rahbarlariga ko‘maklashmoqdalar (III-bosqich).

Umumta’lim maktablaridagi musiqa mashg‘ulotlari maktab musiqa o‘qituvchilari va qisman oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari tomonidan olib borilmoqda. Ikkinchi bosqichdagi malakaviy (kuzatuv) amaliyoti uchinshi kursdagi pedagogik amaliyotga poydevor vazifasini bajarmoqda. Uchinshi bosqich talabalarining ba’zilari esa yashash joylarida mustaqil kasbiy faoliyatlarini olib bormoqdalar. Bu jarayon talabalarni bo‘lg‘usi kasblariga nisbatan bo‘lgan munosabatlarini shakllanishida juda kerakli jarayon ekanligini his qilmoqdalar. Har bir talaba kelajakda o‘qituvchilik kasbining naqadar sharafli ekanligiga amin bo‘lmoqda. Ba’zi bir talabalarning o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan munosabatlarida o‘zgarishlar ro‘y berayotganligining guvohi ham bo‘lish mumkin bo‘ldi. Bular: avvalambor o‘quvchilarni inson sifatida o‘z oila a’zosidek (aka-uka, opa-singil) ko‘rish va unga yaqin kishisidek munosabatda bo‘lish kerakligini, o‘qituvchi bo‘lish uchun mutaxassislik fanlarini chuqur egallash kerakligini, amaliy mashg‘ulotlarni (chalish, kuylash, dirijorlik qilish va boshq) talab darajasida bajarish kerakligini, o‘qituvchiga oid barcha kasbiy sifatlarni egallash kerak ekanligini his qila boshladilar.

O‘qitish masalalari uni metodikasining asosini tashkil etsa, ta’limning quyidagi mazmun va metodlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

- o‘quvchilarning kuylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika fiziologiya tadqiqotlariga tayanadi;

- musiqa o‘qitish metodikasining mohiyati musiqa san’ati hamda madaniyati o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega;

- metodikaning fan sifatida rivojlanishi jamiyatda ta’lim va tarbiya hamda musiqa san’atini takomillashib borishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shular bilan birgalikda musiqa tarbiyasi metodikasi umumiy prinsiplarni ilgari suradi. Bular onglilik, badiiy va texnik rivojlanish prinsiplarga ega. Mazkur prinsiplar o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, musiqaga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqa asarini ongli idrok etish, asar mazmunini ochishda va o‘quvchilarga musiqiy tajribalarni to‘plashda, ularning ma’naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa ta’limi va tarbiyasi emotsional onglilik prinsipi uyg‘unlashishi orqali tinglanadigan asarni to‘g‘ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Ularning musiqaga qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O‘quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e’tibor beradi. O‘quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqa o‘qitish metodikasi tarbiya jarayonida ko‘pgina omillarga bog‘liq ekanligini e’tirof etadi. O‘quvchilarning musiqiy madaniyati

faqatgina umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ta’siri ostida rivojlantirish ayni ta’sirli vositadir. Shular bilan birga o‘quvchidan uyda albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o‘ynaydi.

Musiqa o‘qitish metodikasi ta’lim metodlarini tanlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chiqishda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda:

- metodlarning musiqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijroga bog‘liqligi;
- o‘quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi;
- musiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari;
- o‘quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarning turli shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liqligi.

Metodikaning vazifalariga esa o‘quv tarbiya jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlantirish musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg‘ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga to‘garaklar, bayramlar, ko‘ngil ochish kechalari kiradi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son Qarorining 1-chi bo‘lim a) qismida “mazkur qarorga 1-ilovadagi ro‘yxatda keltirilgan milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish musiqa fani o‘qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;” – deb, ko‘rsatilgan.

Qarorni bajarish yuzasidan bo‘lajak musiqa o‘qituvchisida musiqiy-pedagogik tayyorgarlikning shakllanishida “Cholg‘u ijrochiligi” yetakchi predmet hisoblanadi. “Cholg‘u ijrochiligi”da chalish uslubiyati talabalarning musiqiy-estetik va umumiy rivojlanish o‘rtasidagi uzulish borligi nuqtai nazaridan alohida yondashishni talab qildi. Zamonaviy “Musiqa madaniyati” darsi jarayonida texnik vositalar, turli xil musiqa asboblari (rubob, dutor, fortepiano, doira va b.) dan foydalanish shaxsiy ijrochiilk ko‘nikmalarini egallashga yangicha qarashga majbur etdi. Maktab “Musiqa madaniyati” dasturini o‘zlashtirishning maqsad va vazifalarini beliglab olish zaruriyati tug‘ildi. Bu bilan bog‘liq o‘tilayotgan mashg‘ulot quyidagi bosqichlarda tashkil qilindi: birinchi bosqich, qo‘shiq ustida ishlash, kuyni nota nomlari bilan kuylash, qo‘shiq aytish bilan bir vaqtda qo‘l bilan dirijyorlik elementlarini bajarish, cholg‘u ijrochiligida chalish, o‘z ijrosini kuzatib borish, musiqani tahlil qilish. Ikkinchi bosqich, qo‘shiqning obrazli mazmunini ochishda musiqiy til elementlarining tahlili, ilmiy ma’lumotlar, ifodali ijro etish. Uchinchi bosqich, o‘qituvchi rahbarligi ostida talabaga ko‘rsatilgan kamchiliklarni hisobga olgan holda yod olgan repertuarni chalish. To‘rtinchi bosqich, notaga qarab o‘qish: asarni tahlil qilish (guruhli mashg‘ulotlarda egallangan bilimlar asosida).

Darsning birinchi jo‘rlikda ijro etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, metro-ritm ustida ishlashni o‘z ichiga oldi. Ikkinchi bosqich, o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklar ustida ishlash va asarni mustaqil tahlil qilish. Uchinchi bosqich, repertuarni ijro etish. Bu qism darsning cho‘qqisi bo‘lib, konsert elementlarini o‘zida mujassamlashtirdi. Bu hissiy kayfiyat chalish san’atining asosini egallashga ishonchni tarbiyalash uchun zarurdir. To‘rtinchi bosqich, notani o‘qish va tahlil qilish, noma’lum musiqa asarini o‘qish malakasini shakllantirishga imkon yaratdi. Talabalarning individual daftarlariga ularning erishgan natijalari qisqacha xulosalar, navbatdagi mashg‘ulotgacha bajarilishi kerak bo‘lgan kamchiliklar va ko‘rsatmalar qayd qilib borildi. Bu esa, rivojlanish darajalarini kuzatishga va tajribani uzluksiz to‘plashga imkon berdi. Har bir talaba bilan mashg‘ulot o‘tkazish sharoitida o‘quv semestrining natijasi o‘laroq, guruhiy konsertlar uyuushtirish yordamida musiqa san’ati bilan shaxsiy-ijodiy muloqotda bo‘lish imkoniyati tug‘ildi. Bundan tashqari guruhiy konsertlar talabalarning musiqa haqida o‘z fikrlarini ifodalashlariga, o‘quv va qo‘shimcha materiallarni o‘zlashtirishlariga, musiqani eshitish ko‘nikmasi shakllanishiga, ijro etilgan asarni tahlil qilish malakasining paydo bo‘lishiga ko‘maklashdi.

Ma’lumki, bir vaqtning o‘zida ham chalish, ham kuylash musiqiy qobiliyatning rivojlanishiga kuchli ta’sir qiladi. Chalish va kuylash jarayonida bosh miya, quloq, ovoz, ko‘rish va boshqalar orqali inshaklsiya olinadi. Bir vaqtda chalish va kuylash faoliyati musiqiy eshitishning rivojlanishini samarali amalga oshiradi. Bu esa, ovoz va eshitish o‘rtasidagi muvofiqlik yetarlicha

rivojlanmagan talabalar uchun juda muhimdir. Foydalanilgan yo‘l yetarlicha samarali bo‘lib chiqdi. Shunga ko‘ra, chalish va kuylash maqsadga muvofiq uzviy va uzoq vaqtdan beri o‘tilayapti. Ovozda ohangni to‘g‘ri kuylashni yaxshilash natijalarining cholg‘u ijrochiligida ijro etish sifatiga ta’siri shundoq ko‘rinib turibdi. “Cholg‘u ijrochiligi” mashg‘ulotlarida olib borilgan tajribalar natijasida “Musiqa madaniyati” dasturi va darsligidagi berilgan barcha musiqa asarlarini ijro etadigan bo‘ldilar. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, cholg‘u ijrochiligida chalish ishida eng muhimi talabalarda o‘zlari ijro etgan musiqa mazmunini chuqur tushunish va yorqin tasavvur etish ko‘nikmasining shakllanishiga; temp tuzilishining barqarorligini, o‘ziga xos qiyinchiliklarni anglash va bartaraf etishga urinish tajribasi paydo bo‘lishiga erishildi.

Shunday qilib, “Cholg‘u ijrochiligi” mashg‘ulotlari jarayonini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining maktabdagi musiqiy-amaliy faoliyat vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan “Cholg‘u ijrochiligi” fanining “Musiqa o‘qitish metodikasi. Maktab repertuari” fani bilan o‘zaro aloqasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Musiqiy-pedagogik ishlarning muayyan mazmuni bilan tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari: talabalarda cholg‘u ijrochiligi yordamida vokal-xor elementlarini o‘zlashtirish va musiqani yorqin ohangda ijro etish ko‘nikma hamda malakalarini shakllantirishga; bir vaqtning o‘zida kuylash, chalish va dirijyorlik qilish bilan talabalarning musiqiy eshitishlarida olg‘a siljishlariga; musiqadagi badiiylikni, obrazlilikni to‘g‘ri talqin eta olishga; dastlabki bosqichda asardagi ruhiy holatni aniqlash, mazmunni ochish, asosiy g‘oyani ajratishga; musiqiy rivojlanishning asosiy tamoyillari haqidagi tasavvur va tushunchalar bilan elementlar tuzulishlarni erkinroq tahlil qilishga; musiqa ifoda vositalarining ahamiyatini anglashga; mazmuni, g‘oyasi, ruhiy holati o‘xshash bo‘lgan musiqiy asarlarni o‘zlashtirishga; musiqiy asar qismlarida obrazning rivojlanishini eshitish va kuzatish orqali maxsus musiqiy kuzatuvchanlik ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishga; mazmunni og‘zaki aytib berish orqali musiqiy obraz haqida tasavvurlarni boyitishga erishildi.

“Musiqa o‘qitish metodikasi. Maktab repertuari” fanini o‘qitishda “Cholg‘u ijrochiligi” fanini o‘zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. “Cholg‘u ijrochiligi” fanini o‘qitish o‘quv yilining I-semestridan boshlanishini hisobga olsak, fanning boshlanishidan uni o‘qitishga katta e’tibor berilishi maqsadga muvoofiq bo‘ladi. Guruhda tahsil olayotgan talabalarning turli xil cholg‘u asboblarida o‘qiganluklarini hisobga olsak, ularni o‘rgangan cholgu asboblarida o‘qitishning iloji yo‘q. Shuning uchun O‘zbekiston xududidagi umumta’lim maktablarida cholg‘u (fortepiano) asboblarining yetishmasligini e’tiborga olsak, talabalarni bir xil cholg‘u asboblarida o‘qitishni taqozo qiladi. Shuning uchun “rubob” cholg‘u asbobida o‘qitish maqsadga muvoofiq bo‘ladi. Chunki “rubob” cholg‘u asbobi birinchidan: arzonligi, ikkinchidan, har bir talaba yoshligidan u bilan tanish ekanligi, uchinchidan, boshqa cholg‘u asboblariga nisbatan o‘rganish osonligini hisobga olsak, rubobni guruh talabalariga o‘rgatish bizningcha murakkab hisoblanmaydi va uni talabalar tezda o‘zlashtiradilar.

“Cholg‘u ijrochiligi” faninidan mashg‘ulotlarni tashkil etishda biz, avvalo talabalar orasidan rubob cholg‘u asbobida o‘qigan (xoh musiqa maktabida, xoh ixtisoslashtirilgan maktabda, xoh maktab to‘garaklarida, xoh mustaqil o‘rgangan) larni aniqlab olishdan boshladik. Guruhdagi 25-30 nafar talabalar orasidan 20-30 % chalishni biladiganlarni tashkil etadi. Shuni hisobga oladigan bo‘lsak, ular 5-6 nafarni tashkil etadigan bo‘lsa, har bir cholg‘uvchiga 4-5 nafar talaba to‘gri keladi. Shunday qilib, guruh 5-6 ta kichik guruhchalarga bo‘linadi. Bu gurhchalarga sardorlar tayinlanib, ular darsdan bo‘sh vaqtda berilgan topshiriqlarni birgalikda mustaqil tayyorlanadilar. Tayyorgarlikning natijasi guruh mashg‘ulotlari jarayonida guruhcha sardorlari boshchiligida, ansambl bo‘lib ijroda baholanib boriladi. Natija shuni ko‘rsatdiki, rubobni hech qachon chalmagan talabalar ham semester oxirida 80-90% o‘zlashtirishga erishdilar.

Umumta’lim maktablaridagi “Musiqa madaniyati” darslarini bugungi kun talablari asosida tashkil qilish bo‘lajak musiqa o‘qituvchisidan ham nazariy, ham amaliy tayyorgarlikni talab etadi. Albatta, dars jarayonida texnik vositalardan foydalanish zaruratini inkor etmagan holda, o‘qituvchi

tomonidan darsning musiqiy faoliyat turlarini jonli ijroda bajarib ko‘rsatish o‘quvchilarda dars mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Bo‘lajak umumta’lim maktabi musiqa o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Musiqa o‘qitish metodikasi” va “Cholg‘u ijrochiligi” fanlarining o‘zaro integratsiyasidan foydalanish qulay shart-sharoit hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5847-son. 08.10.2019.
3. “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son
4. Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T:, 2022. 204 b.
5. Nurmatov H. “Rubob darsligi” O‘qituvchi. Toshkent – 1993.
6. Raximov N.N. Musiqa o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T., “METODIST NASHRIYOTI” 2023.
7. Raximov N.N. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisida kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish. Monografiya. Monografiya. Guliston., 2021.
8. Sharipova G. va boshq. “Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari” Toshkent-2014.